

У тadbirkorlik faoliyatining asosi бўлиб, янгилик, ихтиро ва таваккалчилик қилишга тайёрлиги билан ажралиб туради.

Бу венчур капитали қийматини ва венчур инвестицияларнинг самарадорлигини баҳолаш усулларига алоҳида талаблар қўяди. Шу маънода у молиявий капиталнинг бир тури бўлиб, унинг иқтисодийётнинг турли манбалари ва соҳаларидан маблағ жамғаришига ҳеч қандай тўсиқ йўқ.

ISLOMIY QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI

Adxamjonov Shoxbozbek Bobirjon o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar”

kafedrası assistenti

Hozirgi kunda islom moliyaviy qimmatli qog‘ozlar bozori moliyaviy tizimning muhim tarkibiy qismiga aylangan bo‘lib, u jahon iqtisodiyotida katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, Islom moliyasi tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi qimmatli qog‘ozlar zamonaviy moliyaviy tizimda tobora ko‘proq o‘rin egallab, rivojlanishda davom etmoqda.

Bu qimmatli qog‘oz turi sukuk hisoblanadi. Sukuk investitsiyalarni jalb etishda qimmatli qog‘ozlarga alternativ variant hisoblanadi, lekin aksiya va obligatsiyadan farqli jihatlarri mavjud. Sukuk – (“sakk”ning ko‘pligi, arab tilidan akt, hujjat, chek) investitsion faoliyat yoki uning aktiviga nisbatan egalik huquqidagi ulushini ko‘rsatuvchi shariat tamoyillariga asoslangan emissiyaviy qimmatli qog‘oz bo‘lib, turiga ko‘ra foyda va zararga sherikchilikni ifodalaydi, qaytarilishi (to‘lanishi, so‘ndirilishi) va foyda darajasi loyiha xatariga asoslanadi.[1]

Islom moliyasining mashhur olimlaridan Muhammad Taqi Usmoniy sukuk borasida uning xususiyatlarini ochib beruvchi quyidagi mulohazalarni bildirgan.

- bir investor kuchi yetmaydigan kattaloyihalar uchun moliyalashtirishning qulay usullaridan biri;

- investitsiyalarni yo‘naltirish va likvidliligi sabab zarur holda investitsiyani 28 qayatirib olish uchun qulay vosita, shu orqali ikkilamchi bozor ham rivojlanadi;

- banklar va islomiy moliyaviy muassasalar uchun likvidlikni boshqarishning ajoyib usuli;

- boyliklarni taqsimlashning adolatli vositasidir, chunki u investorlarga tadbirkorlik faoliyati foydasidan teng ulushda manfaat olish ishonchini beradi. Bugungi kunda sukuk ayniqsa likvidlik bilan bog‘liq noqulay sharoitda infratuzilma loyihalarini uzoq muddatga moliyalashtirish uchun muhim instrumentga aylanib bormoqda.[2]

Sukukning bir nechta turlari mavjud bo‘lib quyidagilar ularni tarkibiga kiradi:

T/r	Sukuk turi	Tavsifi	Asosiy hususiyatlari
1	Ijara sukuk	Aktivlarni ijaraga berish asosida chiqariladi.	Aktivlar ijaraga olinadi, daromad ijara to'lovlari hisobidan olinadi.
2	Murabaha sukuk	Savdo-sotiq asosida (sotib olish va keyin foyda bilan sotish).	Qisqa muddatli, tovar yoki aktivlar sotuvi asosida.
3	Musharaka sukuk	Sheriklik (hamkorlik) asosida chiqariladi.	Investorlar va emitent o'rtasida foyda va zarar bo'linadi.
4	Mudoraba sukuk	Investitsiya shartnomasi asosida (biri kapital, ikkinchisi mehnat qo'shadi).	Kapital egalari va boshqaruvchi o'rtasida foyda bo'linadi.
5	Sukuk al-Salam	Oldindan to'lov asosida tovarlarni sotib olish.	Qisqa muddatli, ko'pincha qishloq xo'jaligi yoki sanoat mahsulotlari uchun.
6	Sukuk al-Istisno	Buyurtma asosida ishlab chiqarish yoki qurilish loyihalari.	Uzoq muddatli, infratuzilma yoki qurilish loyihalari uchun qo'llaniladi.

Investorlar va emitentlar o'rtasidagi munosabatlar. An'anaviy moliya instrumentlari odatda investorlar va emitentlar o'rtasidagi munosabatlarni qarz oluvchilar va kreditorlar munosabatlari sifatida ko'rib chiqadi. Masalan, agar muassasa kapital bozori orqali 10 yillik obligatsiya chiqarsa, u qarz oluvchi hisoblanadi. Emissiyaviy obligatsiyaga obuna bo'lgan va uni sotib olgan investorlar ushbu stsensariyda kreditorlar sifatida qabul qilinadi.

Biroq, islom moliya instrumentlari investorlar va emitentlar o'rtasidagi munosabatlarni qo'shma korxonalar, sheriklik yoki xaridor-sotuvchi munosabatlari kabi shakllarda o'zaro manfaatli deb biladi. Masalan, mushoraka moliyalashtirishda moliyachi va mijoz sheriklar hisoblansa, murobahada tomonlar sotuvchi (moliyachi) va xaridor (mijoz) sifatida qaraladi, bu odatiy moliyadagi qarz beruvchi-qarz oluvchi dinamikasidan farq qiladi.[3]

Jahon bankini ma'lumotlariga qaragandi 2024-yilda sukukning umumiy emissiyasi taxminan 180 milliard dollarni tashkil etdi. Sukuk infratuzilma, qurilish, energetika va boshqa yirik loyihalarni moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa iqtisodiy o'sishga va ish o'rinlarini yaratishga hissa qo'shadi. Sukuk bozori jahon miqyosida kengayib bormoqda, nafaqat musulmon mamlakatlari, balki G'arb davlatlari ham sukuk chiqarishni boshladi. Bu global moliyaviy tizimda islom moliyasining qabul qilinishini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak islomiy moliyaviy instrumentlarining juda muxim afzaliklari mavjud va qulay imkoniyatlarni yaratib beradi. Hozirgi vaqtda qimmatli qo'g'ozlar bozorini jozibadorligini yanada ortishiga sabab bo'ladi va oshiradi.

Foydanilgan Adabiyotlar ro'yxati

1. [1] Абдумажид Анорбоев. Ан-Наъим – Т.: Абдулла Қодирий, 2003. – 462-б.

2. [2]G.T. Gafurova. Sukuk v sisteme islamskogo finansirovaniya // Vestnik AGTU. Ekonomika. 2011. №2 90-94s.

3. [3]Hoepner AG, Rammal HG, Rezec M. Islamic mutual funds' financial performance and international investment style: Evidence from 20 countries. The European Journal of Finance. 2011;17(9-10):828-850.

YEVROOBLIGATSIYALARNI MUOMALAGA CHIQARISH, O'ZBEKISTONDA YEVROOBLIGATSIYA EMISSIYA AMALIYOTI

Avezov Ibrohim Ilxomovich

*TDIU Korporativ moliya va
qimmatli qog'ozlar
kafedrası asistenti*

Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni har doim ham ichki resurslar bilan qoplab bo'lmaydi, shuning uchun ham davlatlar xorijiy moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezadi. Ya'ni o'z ehtiyojlari uchun xorijiy mamlakatlardan resurs jalb qiladi, bu investitsiya, qarz yoki boshqa shaklda bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda xalqaro bozordan resurs jalb qilishning eng keng tarqalgan usullaridan bir bu yevroobligatsiyalar chiqarib, xalqaro fond bozoriga joylashtirishdir. Bu bozor yillar o'tgani sayn kengayib bormoqda va mamlakatlar, korporatsiyalar, yirik tijorat banklari bu bozorda o'zlarining qimmatli qog'ozlarini joylashtirmoqdalar.

Yevroobligatsiya – bu qarz majburiyatini o'zida ifoda etib, emissiya qiluvchi davlatning valyutasidan boshqa valyutada chiqariladi va xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorida joylashtiriladi. Bu ularga moliyaviy resurs jalb qilish uchun xalqaro bozorga chiqish imkonini yaratadi va 1960-yillarda chiqarila boshlangan yevroobligatsiyalar bugungi kunda anchagina ommalashgan qarz jalb qilish vositasidir.

Yevroobligatsiyalar muddatiga ko'ra 3 turga:

- Qisqa (1 yilgacha)
- O'rta (1-5 yilgacha)
- Uzoq (30 yilgacha)

turlarga bo'linadi va ular odatda uzoq muddatli qarz majburiyatini jalb qilish vositasi hisoblanadi.

Davlatlar, kompaniyalar, yirik tijorat banklari tomonidan yevroobligatsiyalarni sotilishi, ularning investitsiya imkoniyatini oshishiga, xalqaro kapital bozorida samarali faoliyat yuritishiga, xalqaro qarz bozorida sezilarli darajada ishonchli o'ringa erishishga yordam beradi. Investorlar uchun esa aniq belgilangan miqdordagi daromadlilikni olish yoki qimmatli qog'oz bahosining oshishi natijasida daromad olish imkoniyati yaratiladi.

Bu yevroobligatsiya emissiya qiluvchi uchun ham, yevroobligatsiyaga investitsiya kirituvchi uchun ham samarali daromad ko'rish imkoniyatini yaratadi.